SHARQSHUNOS KUTUBXONASI

TURKISTON SAHIFASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TURKISTON SAHIFASI

Turk subayining Turkiston xotiralari
(1914 – 1923 yillar)

Turkchadan Rustam Sharipov
tarjimasi

Toshkent – 2021

Turkiston sahifasi (turk subayining Turkiston xotiralari). - T., 2021. – 32 b.

Ushbu kitobdan Birinchi Jahon urushi ishtirokchisi, Kavkazorti janglarida yaralanib asirga tushgan, so‘ngra Krasnoyarskdagi tutqunlar lageridan qochib Turkistonga kelgan va bu yerda uzoq vaqt mobaynida o‘qituvchilik qilgan turk subayi Roji Chakiro‘z xotiralari hamda taniqli turkiyalik tarixchi olim Temur Xo‘jao‘g‘li Turkiyaning Egey universiteti Turk dunyosi tadqiqotlari instituti tomonidan “Usmoniy davlati va turk dunyosi” mavzusida o‘tkazilgan konferensiyaga taqdim etgan “Turkistonda Usmoniylar imperiyasi zobitlarining faoliyati (1914-1923)” maqolasi o‘rin olgan.

Mazkur tarjima kitobi Turkiston tarixi masalalari bilan qiziqqan o‘quvchilar bilan bir qatorda, sharq tillarini o‘qitishga ixtisoslashgan oliygohlarda turk tilini o‘rganuvchi talaba va magistrantlarga “Badiiy tarjima”, “Matn stilistikasi va tahriri”, “Yozma tarjimaning lingvistik tahlili”, “Matn tarjimasi va tahriri” fanlarini o‘qitishda foydalanish uchun mo‘ljallangan

Tarjimon va nashrga tayyorlovchi:
TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Rustam Sharipov

Mas‘ul muharrir:
TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xayrulla Hamidov

Taqrizchilar:
Амир Темур Халқаро жамғармаси раиси, профессор
Муҳаммадали Аҳмедов

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nilufar Xodjaeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Kengashining 2021 yil 30 sentabrdagi 2 - sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© R.Sharipov, 2021
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.

SO‘ZBOSHI

Jadidchilik harakatining siyosiy-huquqiy jihatlarini o‘rganish jarayonida o‘tgan asrning birinchi choragida mamlakatimiz sarhadlarida yuz bergan ayrim hodisalar e‘tiborimizni o‘ziga tortdi. Sizga hikoya qilmoqchi bo‘lgan voqealar bundan qariyb yuz yil avval Turkistonda bo‘lib o‘tgan. Ular Birinchi jahon urushi ishtirokchisi, Kavkazorti janglarida yaralanib asirga tushgan, so‘ngra Krasnoyarskdagi tutqunlar lageridan qochib Turkistonga kelgan va bu yerda uzoq vaqt mobaynida o‘qituvchilik qilgan turk subayi Roji Chakiro‘z xotiralaridir.

Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan Turkistonga turk subaylari kichik-kichik guruhlar bo‘lib to‘rt marta kelgani haqida tarix guvohlik beradi. Sulton Abdulaziz hukmronligi vaqtida Rossiya istilosiga qarshi harbiy harakatlarga yordam berish maqsadida birinchi marta bir guruh harbiy mutaxassis va muallimlar yuborilgan edi. Sulton Abdulhamid II taxtdan ag‘darilib, “Ittihod va taraqqiy” tashkiloti maydonga chiqqanidan keyin Turkiston bilan yaqin aloqalar o‘rnatiladi. Buning natijasida ikkinchi marta turk zobitlari Turkiston o‘lkasiga keladilar. Anvar Poshsho Harbiy ishlar vaziri etib tayinlanganidan keyin uning ilk farmoni bilan uchinchi marta usmoniy zobitlar Turkiston o‘lkasiga harbiy yordam ko‘rsatish maqsadida yuboriladilar.

Turkistonga kelgan to‘rtinchi guruh esa Birinchi jahon urushi yillarida Kavkazortida asir tushgan turk subaylari edi. Roji Chakiro‘zning “Xotiralar”ida saksonga yaqin asir turk subayi Turkistonda boshidan kechirgan voqealar haqida hikoya qilinadi.

1914 yilning 21 oktyabridan usmoniy qo‘shinlarining subayi Roji Chakiro‘z Ardaxon ostonalaridagi janglardan birida yaralanib, asrga tushadi. U bir guruh turk asirlari qatorida dastlab Kavkazdagi turli lagerlarda bo‘ladi, so‘ngra Sibirga surgun qilinadi. 1918 yil boshlarida bir necha turk subayi hamrohligida Krasnoyarskdagi asirlar lageridan qochishga muvaffaq bo‘lgan Roji Chaqiro‘z va do‘stlari Petro-pavlovskda tatar millatiga mansub bo‘lgan bir kishining uyida bekinib yotishadi. Birozdan keyin, ular qozoqlar karvoniga qo‘shilib, tog‘ va cho‘llardan oshib Oqmasjidga, u yerdan esa poezd bilan Toshkentga

keladilar. Yana birozdan keyin ularga yetmishga yaqin asir turk subayi kelib qo‘shiladi.

Roji Chakiro‘z o‘z “Xotiralar”ida XX asr boshlaridagi Turkiston manzaralarini chizib, u vaqtdagi Toshkent, Buxoro, Chorjo‘y kabi shaharlarda mavjud bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. O‘zi o‘qituvchilik qilgan “Turon”, “Namuna”, “Irfon”, “Muxtoriyat” maktablarining faoliyati haqida, Turkistondagi jadidchilik harakati boshida turgan ziyolilar va Buxoro Muxtor Jumhuriyati rahbarlari bilan bo‘lgan muloqotlar, Hamza Hakimzoda Niyoziy sayyor truppasida olib borgan faoliyati haqida hikoya qiladi. Ammo, ayrim o‘rinlarda “Xotiralar” muallifi voqealarga baho berar ekan, o‘zining “musofir kuzatuvchi” ekanini ayon qilib qo‘yadi. Masalan, muallifning Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati va o‘limi hamda Toshkentning yangi va eski qismlari haqidagi ayrim fikrlari munozarali deb o‘ylaymiz. Boshqa millat vakillariga bo‘lgan munosabat ham biryoqlamaday tuyuladi. Lekin shunga qaramay, “Xotiralar” o‘zining turli xil ma‘lumotlarga boyligi va ravon tili bilan o‘quvchilar e’tiborini o‘ziga tortishi shubhasiz.

Roji Chakiro‘zning ushbu “Xotiralar”i 1971 yilda turkiyalik tarixchi olim Temur Xo‘jao‘g‘li (o‘z vaqtida Buxoro Muxtor Jumhuriyati raisi bo‘lgan Usmon Xo‘janing o‘g‘li) tomonidan yozib olingan bo‘lib, “Turk dunyosi tarixi” jurnalining 1987 yil 1-11 – sonlarida e‘lon qilingan. Mazkur tarjima ushbu nashr asosida amalgan oshirildi. Roji Chakiro‘zning “Xotiralar”i o‘zbek tilida ilk bor ustoz olim Ozod Sharafiddinov tashabbusi bilan “Jahon adabiyoti” jurnalining 1997 yil 5-sonida e‘lon qilingan edi.

“Xotiralar”dan avval Temur Xo‘jao‘g‘lining Egey universiteti Turk dunyosi tadqiqotlari insituti tomonidan “Usmoniy davlati va turk dunyosi” mavzusida o‘tkazilgan konferentsiyaga taqdim etgan maqolasini ham o‘quvchilar e‘tiboriga xavola etishni lozim topdik.

Mazkur tarjima kitobi Turkiston tarixi masalalari bilan qiziqqan o‘quvchilar bilan bir qatorda, sharq tillarini o‘qitishga ixtisoslashgan oliygohlarda turk tilini o‘rganuvch talaba va magistrlarga “Badiiy tarjima”, “Matn stilistikasi va tahriri”, “Yozma tarjimaning lingvistik tahlili” fanlarini o‘qitishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

TURKISTONDA USMONIYLAR IMPERIYASI ZOBITLARINING FAOLIYATI (1914-1923)

Temur Xo‘jao‘g‘li

Usmoniylar imperiyasida 1861-1876 yillarda hukmronlik qilgan Sulton Abdulazizxonning farmoni bilan mudofaa qo‘shini zobiti Miralay Ali Kuzunbey, piyoda qo‘shin zobiti Mehmet Yusufbey, otliq qo‘shin zobiti cherkes Yusufbey, to‘pchi qo‘shin zobiti Ismoil Haqqibey va yana to‘rt nafaqadagi zobitlar 1874 yilda (hijriy 1291) Koshg‘ar amiri Yoqubxon ixtiyoriga yuboriladi. Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan usmoniy harbiylari Turkiston xonliklariga yuborilgan birinchi jiddiy ma’nodagi askariy bo‘linma tarkibidan joy olgan. Tarixchi olim, professor Mehmet Saroy usmoniy zobitlarining Sharqiy Turkistonga yuborilishlarini Turkiya va Angliya davlatlari arxivlariga tayangan holda batafsil bayon yetgan. Mehmet Saroy, 1863-1873 yillar orasida Turkistonning janubiy hududlariga Chor Rossiyasining bosqiniga qarshi Qo‘qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligi Usmoniylar davlatidan yordam so‘ragani, ammo saroydagi ichki kelishmovchiliklar va tashqi nizolar tufayli Usmoniylar davlati ularga yordam bera olmaganligini ham aytib o‘tadi.

Sulton Abdulazizxonning hukumronlik davrida Koshg‘arga yuborilgan turk zobitlari Turkiyaga qaytib, yuzboshi Ali Kozim boshchiligida Sulton Abdulhamidxonga taqdim etgan ma‘lumotlarni Mehmet Saroy nashr ettirgan. Ali Kozimbeyning Sultonga taqdim qilgan ma‘lumotida u Yoqubxon tomonidan Yorkent voliysi Mulla Yunusning xizmatiga jo‘natilgani va uning qo‘l ostidagi to‘pchilarga ta’lim bergani qayd etiladi. Ushbu ma’lumotda shuningdek Yorkent-dagi to‘pchilarning xuddi Istanbuldagi askarlar kabi mohir jangchi bo‘lib yetishganlari alohida mamnuniyat bilan qayd etiladi. Ali Kozimbey bundan tashqari Yorkentda 3000 harbiyga Turkiyadagi “Nizomi Jadid” tizimi asosida harbiy mahorat mashqlari o‘tilgani haqida ham ma’lumot bergan. Sharqiy Turkistonning yetakchilaridan biri Iso Yusufxon keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Yoqubxon Turkiyadan

kelgan zobitlarning ko‘magida 80 ming kishilik qo‘shin tuzganligi ma’lum.

Iso Yusuf Alptegin bu haqda juda qiziqarli ma’lumot keltirib o‘tadi: “Bobom Qosim hoji Muhammad Ali o‘g‘li (turk zobitlaridan ta’lim olgan) qo‘shin tarkibida xizmat qilib, janglarda qatnashgan askar bo‘lgan. Tanasining bir qancha joyida yaralar ko‘rgandim. Besh yoshligimizda chamasi u bizga o‘z xotiralarini aytib berar, hayajonlangan vaqtida bizni oyoqqa turg‘azib, “Tekislan, roslan, qadam bos, bir-ikki, bir-ikki..” deb buyruq berar, shu tariqa o‘tgan kunlarini eslardi. Marhum 85 yoshida vafot etganlar.”

Rahmatli Iso Yusuf Alpteginbeyning bobosi haqidagi aytgan bu kichik xotira parchasi 1874-1876 yillar oralig‘ida turk zobitlari tomonidan harbiy mahorat jihatidan tayyorlangan turkistonlik askarlar o‘z xotiralarini bizgacha qoldirganlari nihoyatda ahamiyatlidir.

Usmoniy zobitlarning XIX asrning ikkinchi yarmida, aniqrog‘i 70-yillarida Sharqiy Turkistonga katta muvaffaqqiyat bilan amalga oshirgan bu safaridan keyin, Turkistonning biror bir hududiga turk zobitlari rasmiy shaklda yuborilmagan bo‘lsada, Usmoniylar davlatining so‘nggi kunlarida, ya’ni 1918-1923 yillar oralig‘ida bir guruh turk zobitlari G‘arbiy Turkistonga borganlari haqida ma’lumotlar mavjud.

1914 yilda Usmoniylar va Chor Rossiyasi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Kavkazdagi janglarda, xususan Ardaxanda ko‘p sonli usmoniy askar va zobitlari rus qo‘shiniga asir tushadi. Oldiniga Kavkazdagi turli xil harbiy lagerlarda ushlab turilgan Usmoniy askarlari va zobitlarining bir qismi keyinchalik Sibirdagi Krasnoyarsk shahrida joylashgan harbiy lagerga yuboriladi. U yerdan qochishga muvaffaq bo‘lgan turk zobitlari turli guruhlarga bo‘lingan holda, qozoqlarning karvonlariga qo‘shilib olib, bugungi Qozog‘iston hududlaridan Toshkentga yetib borishadi. Ulardan bir guruhi bir muddat Toshkentda qolib, maorifni tashkil etish ishlarida ishtirok etishadi. Boshqa bir guruh usmoniylar 1920 yilda yangi tashkil etilgan Buxoro Xalq Respublikasi faoliyatida ishtirok etadilar. 1922-1923 yillar orasida esa usmoniy zobitlarning

katta qismi Turkiyaga qaytgan. Afsuski, ulardan juda ozchiligi o‘z xotiralarini chop etishgan.

G‘arbiy Turkiston va Buxoro Xalq Respublikasida bo‘lib, u yerlarda ham ta’lim, ham harbiy sohada juda katta xizmatlar qilgan usmoniy zobitlaridan Roji Chakiro‘z bilan tanishish va o‘z tilidan xotiralarini yozib olishga muvaffaq bo‘ldim. Rahmatli Rojibeyning xotiralarini 1971 yilda yozib olgan bo‘lsam ham, bu xotirotlar 1987 yilda “Turk dunyosi tarixi” jurnalining 1- va 11-sonlarida chop etildi.

Roji Chakiro‘z kabi Usmoniy davlati zobitlarining juda oz qismi o‘z xotirotlarini chop ettirganlari uchun, bu mavzuda turli xil manbalarga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keladi. Chop etilgan manbalar orasida, taniqli tarixchi prof. Zaki Validiy To‘g‘onning 1969 yilda nashr etilgan xotiralari, Turkistonlik Abdulloh Rajab Boysunning 1945 yilda Istanbulda nashr etilgan “Turkiston milliy harakatlari” nomli asari ham katta ahamiyatga ega. Chunki, To‘g‘on va Boysun o‘sha davrlarda, ya’ni 1920-1922 yillar oralig‘ida G‘arbiy Turkistonda usmoniy zobitlari bilan yaqin aloqada bo‘lgan ikki muhim shaxs hisoblanishadi. Usmoniy zobitlarining G‘arbiy Turkistondagi faoliyatlari haqidagi eng muhim hujjatlar hanuz ma’lum bo‘lgani yo‘q.

1922-1923 yillardan keyin Turkiyaga qaytgan usmoniy davlati zobitlari tahminimizcha bu mavzuda rasmiy idoralarga o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini taqdim qilgan bo‘lishlari kerak. Vazirlik va Turkiya Buyuk Millat Majlisi (Oliy Majlis) arxivlarida saqlanayotgan bu hujjatlarni ko‘rishga bo‘lgan ta’qiqning tezroq olib tashlanishiga umid qilib qolamiz. Ikkinchi muhim arxiv hujjatlari esa, hozirda O‘zbekiston va Rossiyada saqlanadi. Rus bolsheviklarining maxfiy politsiyasi ChK (Favqulotda komissiya) Toshkentdagi usmoniy zobitlarini yaqindan ta’qib qilganlaridan kelib chiqsak, ularning ma’lumotlaridan o‘ta muhim jihatlar ayon bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Buxoro Xalq Respublikasida 1920-1923 yillar oralig‘ida ko‘p sonli usmoniy zobitlarining ta’lim va harbiy jihatdan yuqori mansablarda faoliyat olib borganlari ma’lum.

Shu o‘rinda, ayrim yozuvchilar arxiv ma’lumotlariga suyangan holda bir qator adabiy asarlar yaratishganini ham aytib o‘tish lozim. Ular orasida tojik yozuvchisi Jalol Ikromning 1979 yilda Dushanbeda nashr etilgan “Garnizon taslim nameshavad” (“Garnizon taslim bo‘lmaydi”) nomli pesasi, o‘zbek yozuvchisi Xolmirza Shukurovning (maqolada yozuvchi Shukur Xolmirzaevning nomi noto‘g‘ri keltirilgan) 1982 yilda Toshkenda nashr etilgan “Qil ko‘prik” nomli romani, tatar yozuvchilaridan Tavfiq Oydinning 1991 yilda Qozonda nashr etilgan “Ilan uvi” (“Ilon zahri”) nomli romanini aytib o‘tish lozim. Bu pesa va romanlardagi xarakterlar orasida usmonli turk zobitlariga ham alohida urg‘u berilganini ko‘rishimiz mumkin. Ularning shaxsiyati va faoliyatlari tojik yozuvchilari tomonidan juda salbiy shaklda talqin qilinarkan, o‘zbek va tatar yozuvchilari tomonidan ijobiy xarakter sifatida berilishi e’tiborimizni tortdi.

SSSR parchalanganidan keyin O‘rta Osiyoda beshta mustaqil davlat paydo bo‘lishi bilan, Turkiya va Turkiston o‘rtasidagi aloqalarni bayon etishdagi to‘siqlar olib tashlandi. Bunga bir misol keltirmoqchiman: mening 1987 yilda Istanbulda nashr qilingan Roji Chakiro‘zning xotiralari o‘n bir yil o‘tib 1998 yilda o‘zbek olimi va tarjimoni Rustam Sharipov tomonidan tarjima qilinib, Toshkentda chiqadigan “Jahon adabiyoti” jurnalida “Turkistonda turk subaylari” nomi ostida ba’zi qisqartirishlar bilan nashr etildi. 1918-1923 yillar oralig‘ida G‘arbiy Turkistonda faqatgina usmoniy zobitlari emas, balki 1920-1922 yillarda yuqori martabali Usmoniy poshsholari (vazirlari)ning ham asir tushganlarini ko‘rish mumkin. Usmoniy generallari orasida birinchi bo‘lib, 1921 yilda Baku orqali Turkistonga Anvar poshsho, keyinchalik Jamol poshsho yo‘l oladi. Ulardan tashqari “Teşkilati Mahsusa”ning faol a‘zolaridan bo‘lgan Hoji Salim Sami, Amrullohbey, Adil Hikmetbey, Husayinbey, bursalik Ibrohimbey ham Turkistonga borishadi va ular “Besh turk” nomi bilan mashhur bo‘lishadi. Ko‘pchilikning hurmatiga sazovor tarixchi Jamol Kulay “Ona vatanda so‘nggi besh usmoniy turki” nomi bilan 1964 yilda nashr etgan asarida, ularning Turkistondagi faoliyatlari haqida o‘z og‘izlaridan eshitgan juda qiziqarli voqealarni bayon yetadi.

Bu yerda Anqara hukumati va Mustafo Kamol Otaturkning maxsus topshirig‘i bilan 1921 yilda Turkistonga yuborilgan Subhi Ismoilbeyning Toshkentdagi turkistonlik ziyolilar orasidagi faoliyati, xususan uning “Turkiston Milliy Birligi” tashkilotini tashkil etishga qo‘shgan hissasini ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Anvar poshshoning Turkistonda 1920 yil oktabrь oyidan 1922 yilning avgust oyi oralig‘ida salkam ikki yil davomida faoliyat olib borgani ma’lum. Afsuski, bu haqdagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Tekin Yerer kabi ba’zi yozuvchilarning Anvar poshsho haqida 1970 yilda nashr etilgan, fikrimizcha haqiqatga asoslanmagan, “uydirma” kitoblaridan foydalanishga ehtiyoj deyarli yo‘q. Shavkat Surayyo Aydemir bo‘lsa, Anvar poshsho haqidagi uch jildlik asarida, Turkiston haqidagi bobini juda qisqa va yuzaki qilib o‘tib ketgan. Anvar poshsho haqida biz bilgan eng yaxshi tadqiqot Yapon olimi prof. Masayuki Yamauchi tomonidan 1991 yilda Tokioda nashr etilgan. Masayuki Yamauchi o‘zining bu asarida Anqarada joylashgan “Turk Tarih Kurumu” (“Turk tarix akademiyasi”)da saqlanayotgan Anvar Poshshoga oid 21 ta arxiv hujjat ichidagi maxsus hujjat va maktublarni lotin harflari bilan turk tilida nashr qildirgan. Yamauchining nashr ettirgan maktublari orasida Anvar poshshoning 1922 yil 28 yanvarda Buxoroning sharqidagi Ahjar qishlog‘idan Berlindagi do‘sti Komilbeyga jo‘natgan maktubidan, Anvar poshshoning Turkistonda bir tomondan ruslar bilan jang qilayotgani, boshqa tomondan qo‘shin haakatlanishi uchun harbiy rejalar tayyorlayotgani ayon bo‘ladi:

“Bu yerda, Buxoroning sharqida, Darvaz viloyatida tog‘ ichida va dalalarda xalq tomonidan eski usullar bilan olinayotgan oltin ma’danlari bor. Bundan tashqari, temir, ko‘mir, neft, yoqut, qo‘rg‘oshin konlari ham mavjud. Germaniyadan bu yerga ma’dan muhandisini yuborishning iloji bormi? Agar bu ishda yordam berilsa, juda yaxshi bo‘lardi. Hech bo‘lmaganda, 10 dona katta Parebellum to‘pponchalaridan yuborishni unutma. Qiziq, Zepplin (havo shari) bilan aloqa qilishning iloji bormikin va bu qanchaga tusharkin? Bu yerdan pulini berishimiz mumkin. U yerdagilarga salomimni yetkaz. Otangning qo‘llaridan o‘pib qolaman. Anvar”.

Masayuki Yamauchining Anvar poshsho haqida yozgan boshqa bir asari “Hoşnud Olmayan Insan: Enver Paşa” nomi bilan o‘tgan yili Istanbulda nashr etildi.

Bugun qo‘limizdagi manbalarga asoslanib, xususan men nashr ettirgan Raji Chakiro‘zning xotiralariga tayangan holda aytish mumkinki, zobit va askarlar avval ruslarga asir tushib Sibirdagi Krasnoyarsk lageriga yuboriladi va keyinchalik turli guruhlarga bo‘linib u yerdan qochishadi. So‘ng Toshkent va Buxoroga yetib kelgan 300 ga yaqin usmoniy zobitlari Turkistonda o‘z faoliyatlarini asosan ikki sohada davom yettirganlarini ko‘rishimiz mumkin. Bulardan birinchisi ta’lim sohasi, ikkinchisi esa BXR qo‘shinlarining asosini barpo etish uchun askarlarga harbiy saboq berishdan iborat bo‘ldi. Usmoniy zobitlari Toshkent shahri va BXRda oldindan mavjud bo‘lgan jadid maktablarida ishlaganlar. Yangi usuli jadid maktablarini ochishgan, Usmoniy davlatida ko‘rgan so‘nggi zamonaviy o‘qitish va tarbiya berish usullarini Turkistonda tatbiq qilishga harakat qilishgan. Ikkinchi soha bo‘lgan harbiy sohada, usmoniy zobitlari xususan yosh Buxoro Xalq Respublikasining milliy qo‘shinini tashkil etishga katta hissa qo‘shganlar.

Shu o‘rinda Turkistonda faoliyat olib borgan usmoniy zobitlari nomini eslab o‘tish o‘rinli bo‘ladi deb hisoblaymiz. Raji Chakiro‘zning xotiralarida quyidagi turk zobitlarining nomlari sanab o‘tiladi: Polkovnik Orif (Chengelko‘y), podpolkovnik Ziyobey, bo‘linma mayori Nuribey, mingboshi Usmon bey (Harput), mingboshi Rifat, mingboshi Husni, yuzboshi Faik (Edirna), yuzboshi G‘olib, yuzboshi Shukru, yuzboshi Jemal, kapitan Sait Bahri, yuzboshi Emin, Talat (Edirna), leytenant Yunus (Mosul), leytenant Ziyobey, otliq qo‘shin leytenanti Javitbey, leytenant Mehmet Sodiq (Samsundan), Leytenant Nafi (Manastir), to‘pchilar boshlig‘i Haydar Shavqi, Kozimbey, Hilmi (Oqsaroy), katta mulozim Sulaymon Sami, ofitser Said Ahroriy , ofitser Halil (Bartin), Mehmet (Ag‘istos), Ismoil Haqqi (Kayseri), o‘qchi Orif, Sait Jemal, Mataraji Rifa.

Roji Chakiro‘z

YURAGIMGA YAQIN GO‘SHALAR

Turk subayining Turkiston xotiralari
(1914 – 1923 yillar)

1918 yilning yanvar oyi boshlarida Toshkent vokzaliga keldik. Poezddan tushishimiz bilan ikki hamrohimizni “Ulug‘ Turkiston” gazetasi idorasiga jo‘natdik. U vaqtlarda gazetaning sohibi Muxtor Bekir bizdan biroz avval Toshkentga kelgan turk subaylarining manzilgohlarini topishga yordam berdi. Bular Ziyobek (Boyburt qaymaqomi – ijroqo‘m raisi), to‘pchi Haydar Shavqiy, yuzboshi G‘olib, yuzboshi Shukri, Sulaymon Somiy, assubay (kichik zobit) Sayid Ahroriy (asli Turkistonning Xo‘jand shahridan) kabi do‘stlarimiz edilar.

Biz ko‘plashib ular turgan “Irfon” maktabiga yo‘l oldik. Do‘stlarimiz bilan ko‘rishganimizdan so‘ng, bizni yaqindagi bir hammomga olib bordilar. Hammom Istambul yoki Onado‘lidagi hammomlardan deyarli farq qilmas edi. Vagonlarda uzoq vaqt qilingan sayohatdan keyin yangidan dunyoga kelgandek bo‘ldik. Do‘stlarimiz bergan yangi kiyimlarni kiyib oldigu eskilarini esa yoqib yubordik. O‘sgan soch-soqol va eski kiyimlarda xotira uchun rasmga tushmaganimizga xalihanuzgacha afsuslanaman.

Avval “Izhor-ul Haq idoraxonasi” bo‘lgan xonaga yetti kishi joylashdik. Qolgan ikki do‘stimizga boshqa yer topdik. Yo‘lda og‘ir kasallikka duchor bo‘lgan Mexmetni esa Eski shahardagi kasalxonaga yotqizdik.

* * *

Toshkent shahri ikki alohida qismdan iborat ekan. Biri “Eski shahar” deb nom olgan tarixiy qismi bo‘lsa, ikkinchisi ruslar kelganidan keyingi davrda qurilgan “Yangi shahar” edi. “Eski shahar”da

turkistonliklar “Yangi shahar”da esa asosan ruslar yashar edilar. “Eski shahar” ko‘chalarida ariqlar, qator bo‘lib o‘sayotgan teraklar va bog‘-lar Onado‘li shaharlarini eslatardi. Uylari baland paxsa devorlar bilan o‘ralgan va ko‘chadan deyarli ko‘rinmas edi.

Hukumat idoralari, banklar, rus-tuzem maktablari va klublar “Yangi shahar”da joylashgan bo‘lib, bu yerda ko‘chalar ancha keng-ligi bilan ajralib turardi. Turkiston shaharlarining bunday ikki qismga bo‘linishi ruslar kelganidan keyin vujudga kelganini men keyinroq bildim. Bu manzara Yevropa ta’siridan yaqqol dalolat berib turardi.

* * *

Mexmetbey zotiljam bo‘lgan ekan. Sog‘ayib kasalxonadan chiqi-shi bilan yo‘limizda davom etmoqchi bo‘ldik, ammo Ashxobod yo‘li yopilgani haqidagi xabar bizni shashtimizdan qaytardi. Shimolda esa general Dutov qo‘shinlari bo‘lib, qizillar va oqlar o‘rtasida janglar davom etardi. Shu sababli, Toshkentda yangi ochila boshlagan mak-tablarda ma’lum bir muddat o‘qituvchilik qilishga qaror qildik.

Demak, Onado‘lidan minglab kilometr uzoqlikda joylashgan bu o‘lkada o‘qituvchilik qilish peshonamizda yozilgan ekan. Zotan, biz-gacha bu yerga kelgan turk subaylari ham o‘qituvchilik qilishayotgan edi. Do‘stlarimizdan Haydar Shavqiy – Xadra-Ko‘kcha mahallasidagi 1 – “Namuna” maktabida dars berardi. G‘olib – Shayxantohur-Mergancha mahallasidagi 6 - “Turon” maktabida, yuzboshi Shukri 2 – “Muxtoriyat” maktabida ishlar va “Turon kuchi” guruhiga rahbarlik qilardi. Sayid Ahroriy esa Beshyog‘och mahallasidagi 12 – “Turon” maktabida ishlar va “Izchi” guruhiga rahbarlik qilardi. Istanbulda tahsil olib qaytgan Abdurahmonbek O‘rda og‘zi mahallasidagi 10 – “Irfon” maktabida ishlar va “Taraqqiy” jamiyatiga rahbarlik qilar edi.

Meni ham 6 – “Turon” maktabiga yuborishdi. Ishni maktab qoshida “Turk kuchi” guruhini tashkil etishdan boshladim. Shunday qilib, besh-olti sinfdan iborat bo‘lgan maktablarda turkistonlik o‘qi-tuvchilar bilan birga biz, Onado‘lidan kelgan asir turk subaylari ham dars bera boshladik.

* * *

Guruhimiz o‘z safiga yoshlarni birlashtirgan jamiyat sifatida tashkil etilgan bo‘lib, unda jismoniy tarbiya mashqlari va sport musobaqalari o‘tkazilar edi. Har bir guruhda kichik musiqa orkestri bo‘lgani uchun biz ham ishimizga bir guruh musiqachilarni jalb etdik. Men ohanglarni qog‘ozga tushirishni bilmaganim uchun, ular bir necha marsh kuyini mening xirgoyimdan yozib olishdi. Shu bahonada, bir necha harbiy marshlarning nota yozuvlari yozilib qoldi.

JADIDCHILIK HARAKATI

Biz Toshkentga kelganimizda, bu yerda jadidchilik harakati boshlanib ketgan va shaharning har tarafiga yoyilgan edi. Ba’zi yerlarda esa “Russkoe tuzemnoe uchiliщe” maktablari ochilib, yerli aholi o‘rtasida rus madaniyati urug‘larini sochish harakati mavjud edi. Bunga qarshi Qrimli Ismoilbek Gaspirali ta’limotini dasturul amal qilgan bir guruh turkistonlik ziyolilar yangi usuldagi (“Usuli Jadid” – tarj.) maktablarini ochayotgan edilar. Jadidchilik harakati boshida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Usmon Xo‘ja va Munavvar qori Abdurashidxonov kabi ziyolilar turardi. Biz kelgan vaqtda (1918) bunday boshlang‘ich va o‘rta maktablarning soni yetmish ikkiga yetgan edi. Birin-ketin ochilayotgan maktablarga o‘qituvchi topish qiyin ish edi. Hattoki, rus litseylarining oxirgi sinflarida o‘qiyotgan turkistonlik o‘quvchilardan bir qismi bu maktablarda dars berish uchun jalb etila boshlandi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida uch va olti oylik “O‘qituvchilarni tayyorlash kurslari” ham ochildi.

* * *

Men muallimlik qilayotgan “Turon” maktabida rus tili fanidan bir chex millatiga mansub o‘qituvchi dars berardi. U vaqtda “Turk kuchi”

guruhini tashkil etish bilan mashg‘ul edim. Musulmon bo‘lmagani uchun, faoliyatimni bu chexning oldida olib borishim bir oz murakkabliklar tug‘dirdi. Bu haqda maktab direktori Majid Qodiriyga aytishga majbur bo‘ldim. Unga: “Bu yerda yo u qolishi kerak yoki men!” – dedim. Shundan keyin uni boshqa maktabga yuborib, o‘rniga Ra’no xonim degan yosh turkistonlik qizni ishga olishdi. Ra’no xonim u vaqtda rus litseyining bitiruvchi sinfida o‘qir edi. Bo‘lajak xotinim Ra’no xonim bilan shu tariqa tanishdim.

TEATR FAOLIYATLARI

Farg‘ona vodiysida Musajon va Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan tashkil etilgan musiqali teatr truppasi bizning “Turk kuchi” guruhi bilan birlashish istagini bildirdi. Biz ham bunga rozi bo‘ldik. Bu vaqtda truppa Toshkentga kelib, yozuvchi Hamza Hakimzodaning “Loshman fojeasi” nomli pьesasini qo‘yayotgan edi. Unda Chor Rossiyasining Birinchi jahon urushi davrida Turkiston xalqiga nisbatan o‘tkazgan zulmi haqida hikoya qilinardi. O‘sha yillari qozoq, qirg‘iz, o‘zbek va turkmanlarni front ortida xizmat uchun zo‘rlik bilan mardikorlikka olish ishlari boshlab yuborilgan edi. Mahalliy aholi bunga qarshi chiqqanlarida askarlar ularga qarshi qurol ishlatgan edilar. Natijada, 1916 yil umumxalq Turkiston qo‘zg‘loni boshlanib ketgan edi. Asarda ana shu qonli voqealar haqida hikoya qilinardi.

Hamza Hakimzoda rahbarlik qilayotgan ushbu sayyor truppaning erkak san’atkorlari aksariyati o‘zbek edi. Ularning ichida birgina tatar ayol san’atkor bor edi. Bizning guruh bilan birlashganidan keyin truppaga Fotima Tutash degan yana bir tatar qizi kelib qo‘shildi. “Tutash” so‘zi tatarchada “erga tegmagan qiz, bokira” ma’nolarini beradi. O‘zbeklar u vaqtlarda qizlarining teatrga kirib ishlashiga ruhsat bermasdilar. Teatrning ayol san’atkorlarga bo‘lgan ehtiyoji tatar, arman va yahudiy xonimlarni sahnaga jalb etish yo‘li bilan qondirilar edi. Masalan, o‘zbeklarning eng mashhur raqqosasi – arman qizi Tamara xonim edi.

Guruhlarimizning birlashishi tantanali bir marosim bilan amalga oshirildi. Hamzaning teatr truppasi musiqa sadolari ostida Toshkentning Yangi shahar qismidan, bizning “Turk kuchi” guruhimiz esa maxsus tikilgan kiyimlarda va orkestr sadolari ostida Eski shahardan yo‘lga chiqdik. Bir ozdan keyin guruhlar O‘rta og‘zi degan yerda uchrashib, birgalikda “Turon” maktabi tomon yo‘l oldilar. Teatrlashtirilgan yurish davomida har ikki guruh musiqachilari “Eski do‘st” (aslida olmonlarning “Alte Kamarat”) nomli marshini chalib bordilar. “Turon” maktabi hovlisida Muhiddin qori tomonidan mavlud o‘qildi, dasturxonga osh tortildi.

Yozuvchi Hamza Hakimzodaga maktabdagi bo‘sh xonalardan biri ajratilib, u har safar Toshkentga kelganida shu yerda qoladigan bo‘ldi. Birlashgan teatr truppasiga ham Hamzaning o‘zi rahbarlik qila boshladi.

HAMZANING O‘LIMI

Yillar o‘tgach, men Hamza Hakimzoda Niyoziy 1929 yilning 18 martida o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloqda hamqishloqlari tomonidan vahshiylarcha o‘ldirilgani haqidagi xabarni eshitdim. Bunga ham Hamzaning o‘zi sababchi bo‘lgan deb o‘ylayman. Chunki biz bilan birga ishlagan vaqtlarda jadid va millatchi bo‘lgan Hamza keyingi yillarda marksist va ateist (tangri tanimas) guruhlarga qo‘shilib ketgandi. Asarlarida Islom diniga qarshi ifodalar qo‘llay boshlagandi. Bu ham yetmaganidek, qishloqlarga borib, avliyolarning mozorlarini buzib, ularning o‘rnida ateistlikni targ‘ib etuvchi muzeylar tashkil eta boshlagandi. Xullas, ne taqdiri ilohiyki, Hamza o‘zi tug‘ilgan Shohimardon qishlog‘idagi muqaddas mozorni buzish uchun ketayotgan vaqtida hamqishloqlari tomonidan toshbo‘ron qilib o‘ldirilgan ekan (Roji Chakiro‘zning ushbu fikrlari xato va munozarali ekanligini biz so‘zboshida aytib o‘tganmiz – R.Sh.).

Bu voqeadan keyin rus askarlari Shohimardonga hujum qilib, bironta bino yoki daraxtni qoldirmay, qishloqni yer bilan yakson qiladilar. Omon qolgan odamlar esa boshqa yerlarga bosh olib chiqib

ketadilar. Keyinroq Shohimardon o‘rnida yangi usuldagi jamoa xo‘jaligi vujudga keladi. U bugungi kunda Hamzaobod deb ataladi.

SOTSIALISTLAR O‘RTASIDAGI TO‘QNASHUVLAR

1919 yil 6 yanvarь. “Turon” maktabida dars berardim. Kutilmaganda, tashqaridan otishma ovozi keldi. Birozdan keyin bunga to‘p va bomba ovozlari qo‘shildi. Biz darslarni to‘xtatib, o‘quvchilarni uylariga jo‘nata boshladik. Eshitishimizga qaraganda, Toshkentda yana bir aksilinqilobiy harakat boshlangan ekan. Turkistonlik do‘stlarimdan biri mening teridan tayyorlangan kiyim (kojanka)da yurishim xatarli ekanini aytdi. Men darhol o‘zim yashayotgan Nazar qorining O‘rda yaqinida joylashgan musofirxonasiga “jin ko‘cha”lar orqali yo‘l oldim. Uyga yetib kelgach, voqealarni derazadan kuzata boshladim. Bir yonda (“Askariy maktab” – “Kadetskiy korpus” bo‘lgan yerda) general Osipov qo‘shinlari (menьsheviklar), ikkinchi (Qo‘rg‘ontepa) tomonda bolьsheviklar, uchinchi tomonda esa so‘l sotsial revolyutsionerlarning qurollangan guruhlari bir-biri bilan jang qilar edilar. Eng dahshatlisi shundaki, kimning kimga qarshi urishayotgani ma’lum bo‘lmagan ushbu qonli to‘qnashuvda aybsiz yerli aholi halok bo‘layotgan edi.

Birinchi kunlarda general Osipov qo‘shinlarining qo‘li baland kelib, qonli to‘qnashuvlarda bir necha bolьshevik komissari ham halok bo‘ldi. Vaziyat keskinlashganini ko‘rgan so‘l eserlar Bolsheviklar bilan birlashib, menьsheviklarga qarshi hujumga o‘tganlarida menьsheviklar chekinishga majbur bo‘ldilar. Asir bo‘lganlari esa “Askariy maktab” orqasida qazilgan xandaqlar oldida qatl etilib, umumiy mozorga ko‘mildi. Qo‘lga tushgan yosh rus askarlari yuk mashinalarida olib kelinib, u yerda otib tashlanganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Tarixda “Osipov voqeasi” deb nom olgan bu qonli to‘qnashuv natijasida biz hammamiz uzoq vaqt ruhan ezilib yurdik.

BIR NAMOYISH TAFSILOTI

1919 yilning oktyabrь oyi oxirlari. Oktyabrь inqilobining ikki yilligi nishonlanayotgan edi. Chor hukumati davrida Turkiston general-gubernatori Kaufman (1818-1882)ning Toshkent markazi (hozirgi Amir Temur xiyoboni – tarj.)da o‘rnatilgan haykali oldida tantanali namoyish bo‘lib o‘tishi kerak edi.

Toshkentda hokimiyatni qo‘liga olgan qizil komissarlar haykal oldida turar, maktab o‘quvchilari esa ularning oldidan qator-qator bo‘lib o‘tib borar edilar. Maktabimiz o‘quvchilari ham ushbu namoyishda ishtirok etdilar.

Barcha o‘quvchilarning kiyimi bir xil – jigarrang edi. Faqat yoqa va do‘ppilari maktabiga qarab o‘zgarardi. “Temur” guruhi yashil, “Izchi” – qizil, “Taraqqiy” – moviy, “Turon kuchi” guruhi a’zolari esa to‘q qizil do‘ppilarda edilar. Barcha o‘quvchilar ozoda va sarishta kiyinishgandi.

Rus maktablari o‘quvchilari esa rang-barang liboslarda namoyishdan o‘tdilar. Buni ko‘rgan Turkiston komissarlaridan biri asabiylashib, o‘qituvchilarni bolaxonador qilib so‘kdi.

Kafuman haykali oldida she’rxonlik ham bo‘lib o‘tdi. Mening o‘quvchilarim orasida Kamol degan bir bola bor edi. U mendan o‘rgangan shoir Emir Bulentning bir she’rini turk tilida hayajon bilan o‘qib berdi. Shunda komissarlardan biri she’rning tarjimasi bilan qiziqdi va qulog‘iga chalingan “... G‘arb zolimi...” iborasi bilan nima deyilmoqchi ekanini so‘radi. Shunda turkistonlik komissarlardan biri: “Bu bilan ingliz mustamlakachilari nazarda tutilmoqda. She’r hammamiz uchun dushman bo‘lgan inglizlarga qarshi yozilgan”, - deb javob berdi. Bu javobni eshitib, rus komissarining ko‘ngli joyiga tushdi.

KAUFMAN HAYKALI VA CHERNYAEV QABRI

Toshkentdagi Sobornaya ko‘chasida yonma-yon turgan rus litseylari binolaridan o‘tgandan keyin katta bir maydon keladi. Maydonning qoq o‘rtasida general Kaufmanning haykali bor. Bir oz

narida, erkak litseyi yaqinida 1865 yilda Toshkentni bosib olgan rus generali Chernyaev (1828 - 1889)ning qabri joylashgan. Qabr toshi uzra oy-yulduz, uning o‘rtasida esa pravoslav xochi o‘rin olgan. Biz Kompartiyaning mahalliy a’zolaridan Chernyaev qabr toshida musulmon va pravoslav ramzlarining birga qo‘yilishi va buning baynalmilalchilikka qanday aloqasi borligi haqida so‘radik, ammo jo‘yali javob olalmadik. Kunlardan bir kun Kaufman haykali va Chernyaev qabri maydondan olib tashlandi (1920). Chorizm paytidagi Turkiston bosh hokimligi binosi muzeyga aylantirilib, haykal va qabr u yerga olib o‘tildi.

* * *

Toshkentda yana bir bayram nishonlanayotgan edi. Shayxantohur maydonida maktab o‘quvchilari mahoratlarini namoyish etardilar. Taklif etilganlar orasida gimnastika jamoasi rahbari Gerxard ismli bir chex ham bor edi. “Temur” guruhi qatnashchilari do‘stimiz Haydar Shavqiy o‘rgatgan “shveytsar” usulidagi harakatlarni, mening “Turon” maktabim o‘quvchilari esa sport buyumlaridan foydalanib, “trapetsiya”, “xalqa”, “parallelь” kabi gimnastika mashqlarini mahorat bilan bajardilar. Tomosha so‘ngida Gerxard mening oldimga kelib, “Sokol” jamoasiga a’zo bo‘lishni taklif etdi. Men esa Turkistonda vaqtincha ekanimni va qancha qolishim ma’lum emasligini ro‘kach qilib, uning taklifini rad etdim. Lekin shunga qaramay, biror kun uning oldiga borishga va’da berlim.

ANVAR POSHSHONING BUXOROGA KELISHI

Navbatdagi bayramlardan biri edi. Shu kuni Anvar poshsho Buxoroga keldi. Nomi afsonalarga aylangan bu qahramonni tumonat odam qarshiladi. Anvar poshsho maydonda qizg‘in nutq so‘zladi. Shundan keyin u Buxoroda bo‘lgan asir turk subaylari bilan ko‘rishish istagini bildirgach, ertasi kun Sitorai Mohi Xosa saroyida tushlik vaqtida yig‘ilishga qaror qilindi.

Uchrashuv vaqtida poshsho har birimizdan qaerda asir tushganimiz haqida so‘radi. Kimdir “Sariqamish”, yana kimdir “Olti” dedi. Men esa “Ardaxan” deganimda, poshsho menga qarab “Ardaxanda yaralandim, degin-a”, - dedi. Ko‘rinishidan u ancha toliqqan edi. Rusiyaga qanday qilib kelganini so‘zlab berganidan keyin biz buning sababini tushundik.

BOKU KONFERENSIYASI VA ANVAR POSHSHO

Anvar poshsho doktor Baxa Shokir hamrohligida ijaraga olingan samolyotda Olmoniyadan Rossiyaga yo‘l oladi. Ob-havo sharoiti yaxshi bo‘lmagani sababli adashib ular Riga shahri yaqinidagi aerodromga qo‘nadilar va josus gumon qilinib, qamoqqa olinishadi. So‘roq vaqtida Anvar poshsho o‘zini bolgar dorishunosi, Baxa Shokir esa doktor deb tanishtiradi. Rossiyaga esa asirga tushgan turklarni ko‘rish uchun ketayotganlarini aytishadi. Tergov tugagunga qadar ularni qamoqda ushlab turishadi. Har kuni ikki soat soqchilar hamrohligida tashqariga chiqar ekanlar. Shunday chiqishlardan birida ular qochishga muvaffaq bo‘lishadi. Samolyot topib, Moskvaga uchib kelishadi.

U vaqtda Bokuda Sharq Millatlari Kongressi o‘tkazilayotgan bo‘ladi. Anvar poshshoning Moskvadaligidan xabardor bo‘lgan tashkilotchilar uni anjumanda ishtirok etish taklif etadilar va poshsho bu taklifni qabul qiladi.

Anvar poshsho Moskvadan Bokuga yo‘lga chiqar ekan, Kongress tashkilotchilaridan biri bo‘lgan Zinovьev tashkiliy qo‘mita yig‘ilishida “Mehmon so‘z so‘rasa, beramizmi, yo‘qmi? Shunga kelishib olsak,” – degan masalani o‘rtaga tashlaydi. Tashkiliy qo‘mita a’zolarining bir qismi partiya a’zolari, bir qismi esa partiyasizlar edi. Partiyasizlar guruhiga toshkentlik Toshpo‘lat Norbo‘tabekov rahbarlik qilardi. O‘rtaga tashlangan masala yuzasidan qizg‘in munozara boshlanib ketadi. Oxir-oqibat, bu masalaga ijobiy va salbiy munosabatda bo‘lgan ikki kishiga so‘z berishga qaror qilinadi. Anvar poshshoga so‘z berilishini yoqlab, bir vaqtlar Buxorodan Onado‘liga kelgan Rajab,

qarshi fikr bildirib esa turk subaylaridan kayserilik muallim Ismoil Haqqi so‘zga chiqadilar. Natijada, Kongress Anvar poshshoning nutqini yozma ravishda qabul qilib, qatnashchilardan biri uni o‘qib beradigan bo‘ldi.

Bokuga kelgan Anvar poshshoni xalq katta quvonch bilan kutib oladi. U Kongress o‘tayotgan binoga kirib borar ekan, Kavkaz turklari “Anvar poshshoning boshidan bir tuk sochi to‘kilsa, binoni havoga uchiramiz!” – deb ogohlantiradilar. Kongress mana shunday murakkab bir vaziyatda davom etdi.

Anvar poshshoning nutqini o‘qib berish Mehmet Emin Afandizodaga topshiriladi. Bu nutq tahminan shunday boshlanar edi: “Qora dengiz to‘lqinlari va Riga qamoqxonasi yo‘limda g‘ov bo‘lmaganida edi, men avvaldan orangizda bo‘lar edim...”

Kongressdan keyin Anvar poshsho Batumiga, undan keyin Turkistonga ketadi. Buxoroga o‘zi o‘g‘liga qo‘ygan “Ali” nomi bilan keladi. Anvar poshsho hikoyasidan xotiramda qolganlari shulardan iborat.

FAROBIY MUSIQA MAKTABI

Sitorai Mohi Xosa saroyida joylashgan kurslarda muallimlik qilar edim. Farobiy musiqa maktabida ishlayotgan do‘stim Said Jamol yurtga qaytish maqsadida ishdan bo‘shadi. Maorif noziri Qori Yo‘ldosh bizga rahbarlik qilayotgan Usmonbey bilan ko‘rishganidan keyin men uning vazifasiga tayinlandim. Maktabga ko‘chib o‘tishga to‘g‘ri keldi.

Ishni orkestr tashkil etishdan boshladim. Avstraliyalik va venger o‘qituvchilar yordamida mashg‘ulotlarni boshlab yubordik. Mahalliy qo‘shiq, marsh va musiqa notalarini tayyorladik. Rus musiqa san’ati an’analarida shakllangan Qurbon degan bir klarnetchini orkestrga rahbar qilib tayinladim. Bir ozdan keyin meni Maorif boshqarmasiga ishga o‘tkazishdi. Faoliyat doiramga kutubxona, teatr va bu kabi tashkilotlarni nazorat qilish kirardi.

* * *

Bir qancha mashg‘ulotlardan keyin orkestrimiz mahorat bilan kuylar chala boshladi. Do‘stlarimiz bilan maslahatlashib, kontsert berishga qaror qildik. Maorif boshqarmasidan ruhsat olgach, tayyorgarlik ko‘ra boshladik. Taklifnomalar tayyor bo‘lgach, butun Buxoro bo‘ylab tarqatdik. Nihoyat, kontsert kuni ham yetib keldi. Bir vaqtlar bank, Buxoro inqilobidan keyin esa kinoteatrga aylantirilgan binoda bo‘lib o‘tgan binoda bo‘lib o‘tgan kontsertga hukumat a’zolaridan ham bir necha kishi tashrif buyurdi.

Kontsert programmasi shunday tuzilgan edi: avval domlalar sahnaga chiqishi, keyin esa talabalarga navbat berildi. O‘qituvchilar guruhi Yevropa musiqasidan namunalar ijro etganidan keyin, talabalar mahalliy kuy va turkcha marshlarni ijro etdilar. Tinglovchilar san’atkorlarning chiqishini katta mamnuniyat bilan qarshi oldilar. Ammo bu xursandchilik ortidan fojia kelayotganini hech kim bilmasdi.

FOJIA

Odamlarning istak va takliflariga binoan Maorif boshqarmasi orkestrimizning kinoteatr sahnasida davomli chiqishini taklif qildi. Men orkestr emas, bir pianinochini taklif etish lozim, degan fikrni bildirdim. Gapim inobatga olinmadi. Shundan keyin, vaqt-vaqti bilan orkestrni kinoteatrga jo‘natishga majbur bo‘ldik.

Bir kuni orkestrimiz kinoteatr binosida kontsert barar edi. Men esa yaqindagi xiyobonda xayol surib aylanib yurardim. Kutilmaganda binoda yong‘in ro‘y berdi. Oynalardan chiqayotgan olov atrofni yoritib yubordi. Eskidan bank bo‘lgan bu binoning bittagina eshigi bor edi. Shu sababli, ko‘plab odamlar bino ichida qolib ketib nobud bo‘ldi. Orkestrimizning to‘qqiz a’zosi ham shu yong‘inda halok bo‘ldi. Bu voqeadan keyin men uzoq vaqt ruhan ezildim, tushkunlikka berildim. Buxoro bo‘ylab bezgak tarqalgach, men bu yerdan ketishga majbur bo‘ldim.

* * *

Mening xastaligimni ko‘rgan Munavvar qori Chimkentga borib, u yerda qimiz bilan davolanishni maslahat berdi. Moddiy ahvolim yaxshi bo‘lmagani uchun menga pul bilan ham yordam qildi. Shundan keyin xotinim va men Chimkentga ketdik.

Chimkent o‘zining shifobaxsh qimizi bilan dong‘i ketgan joy edi. So‘lim tabiati va toza havosi ham insonga darmon berardi. Men u yerda o‘n-o‘n besh kun qolib, undan keyin Buxoroga qaytdim.

CHK HARAKATGA O‘TDI

Anvar poshsho kelib ketganidan keyin, 9 mart kuni Buxoroda bo‘lgan barcha turk subaylarini ChK binosiga to‘pladilar. Hammamizni bir xonada kechgacha ushlab turishdi. Fayzulla Xo‘jaevning aralashuvidan keyingina meni qo‘yib yubordilar. Bu voqeadan keyin xotinim bilan men Chorjo‘yga ketishga majbur bo‘ldik.

Men Chorjo‘yda yangi ochilgan va Amudaryo qirg‘oqlarida joylashgan Fayzulla Xo‘jaev nomidagi Muallimlar institutiga direktor qilib tayinlandim. Xotinim Ra’no xonim ham bu institutda rus tilidan dars bera boshladi. Institut bitiruvchilari atrofdagi boshlang‘ich maktablarga muallim qilib yuborilar edi. O‘qish jarayonida talabalarning malakasini oshirish maqsadida institut qoshida boshlang‘ich maktab ham ochildi. Yetakchi o‘qituvchi qilib qozon tatarlaridan Kuneshov degan odam tayinlandi. Maktabni bitirgan o‘quvchilarni chet elda o‘qishni davom ettirish uchun yuborish haqida ham fikrlarimiz bor edi. Bu niyatimiz amalga oshib, o‘quvchilarning birinchi guruhi 1922 yilda Olmoniyaga, ikkinchi guruhi esa Onado‘liga yuborildi. Onado‘liga ketgan o‘quvchilar Samsun va Kastamonu hududlarida ta’lim olganlarini keyinroq eshitdim. Yana ikki talabalar guruhi Moskvada o‘qish uchun yuboriladi.

O‘rni kelganda, Buxoro hukumatining Anqara bilan aloqalari haqida ham aytib o‘tish lozim. Buxoro hukumati tarafidan tayinlangan hay’at Anqaraga hadya sifatida ikki asl qilich va bir Qur’oni Karim nusxasini olib bordi. Qilichlardan biri shaxsan Otaturkka, ikkinchisi

esa Izmir shahrini ozod etishda jonbozlik koʻrsatib, shaharga birinchi boʻlib kirgan qoʻmondonga berish uchun yuborilgan edi (baʼzi manbalarda qilich uch dona boʻlib, birini Jamol poshsho taqqan degan maʼlumotlar bor – tarj.).

Institutimizni bitirgan ilk guruh vakillari oʻqituvchilar sifatida maktablarga taqsimlangach, men ham mamlakatga qaytish taraddudini koʻra boshladim (1923). Bu vaqtda Chorjoʻyda rus harbiy maktabi tashkil etilib, unda meni va boshqa hamkasabalarimni dars berishga majbur qila boshlagan edilar. Maktabning qanday fanlardan ehtiyoj boʻlsa, unga koʻra bir-ikki oʻqituvchi tavsiya eta olishimni aytdim. Ammo mening ham dars berishim kerakligi aytildi. Men esa zahiradagi subay boʻlganim sababli dars bera olmasligimni tushuntirishga harakat qildim.

HAYAJONLI BIR VOQEA

Bir kuni uyda mehmonlar bilan oʻtirgan edik. Qulogʻimga qandaydir tovush chalindi. Tashqariga chiqdim. Nomaʼlum bir odamning sharpasini sezganday boʻldim. Birdan roʻparamda notanish bir rus yigit paydo boʻlib (keyinroq u harbiy maktab tinglovchisi ekanligi maʼlum boʻldi), menga pichoq bilan xamla qildi. Buni koʻrgan Tangrberdi degan turkman oʻquvchim boshqa bolalarni uygʻotib chiqdi va hammalari bir boʻlib u yigitga tashlandilar. Bosqinchi militsiya boʻlimiga olib ketildi. Tergovda yigit mast boʻlib, nima qilganim esimda yoʻq deb turib oldi. Natijada u ozod etildi.

Bu voqeadan keyin talabalarim guruh-guruh boʻlib, meni muntazam qoʻriqlab yuradigan boʻlishdi.

QAYTISH

Mamlakatimga qaytish vaqti kelgan edi. Hujjatlarimni tayyorlab, rasmiy idoralardan ruxsat oldim. U vaqtlarda ChKdan ham viza olish lozim edi. U yerga bordim. Yoshgina bir xodim meni qarshi oldi.

Iltimosimni tingla bo‘lgach, “Albatta ruxsat beramiz”, - dedi. Orqasidan esa “Uzoq vaqt mobaynida bu mamlakatda o‘qituvchilik qildingiz. Shu sababli sizdan Buxoro haqida jo‘g‘rofiy va tarixiy ma’lumotlar berishingizni iltimos qilamiz”, - deb qo‘shimcha qildi. Bu yerga yaqinda kelganini va Buxoro haqida hech qanday ma’lumoti yo‘qligini aytib, “Siz fikrlaringizni qog‘ozga tushirib, menga olib keling va vizangizni oling”, - dedi. Boshqa choram bo‘lmagani uchun bu taklifni qabul qilishga majbur bo‘ldim. Maktabga qaytib kelganimda rus tili o‘qituvchisi Semyonov ahvolimni ko‘rib, “Bir oz xayolchan ko‘rinasan”, - dedi. Bu odam missioner Lazarevskiy maktabida ta’lim olgan bo‘lib, podsho tarafdori, Xitoy vakolatxonasida ishlagan sharqshunoslardan edi. U xotini va farzandlari bilan anchadan beri Buxoroda yashar edi. Maktabimizga Semyonovni men olib kelgan edim. Shu sababli ahvolni unga tushuntirdim. U esa “Sen xafa bo‘lma. Matnni men tayyorlab beraman, sen esa ChKga olib borib berasan, xolos”, - dedi. Aytganidek,qildik. Tayyorlab bergan ma’lumotnomani o‘qib chiqdim. Unda umumiy ma’lumotlardan boshqa narsa yo‘q edi. Shuning uchun uni ChKga olib bordim. Yosh chekist hujjatni o‘qib chiqdi, nima sababdandir miyig‘ida kuldi va vizamni berdi. Ertasi kun poezdda Ashxobod orqali Krasnovodskka ketadigan bo‘ldim. Vokzalga borganimizda haligi chekistni ham u yerda ko‘rdim. Uning maqsadini aniqlashni bir o‘quvchimga topshirdim. Bir ozdan keyin u menga ChK xodimi men chiqqan vagon nomerini yozib olganini ma’lum qildi. Oldinda meni nimalar kutayotganini tushunganday bo‘ldim.

*** * ***

Aoezd yurib ketdi, men esa ortiqcha qog‘oz va hujjatlarni yirtib derazadan uloqtirdim. Adashmagan ekanman. Buni Ashxobod vokzaliga kirib borganimda sezdim. Bir guruh askar bizning vagonga chiqdi. Chorjo‘daligimizda bir ozarbayjon tujjorni yonimizga olgan edim. U vaqtlarda chipta olish muammo edi. Shu sababli yo‘lda uning aloqalaridan foydalanishni o‘ylagan edim. Askarlar meni, xotinim va

o‘sha tujjorni GPU (Davlat Siyosiy boshqarmasi)ga olib ketdilar. Har birimizni alohida xonaga qamadilar. Boshdan oyoqqacha tintib chiqdilar. Mening ruscha bilish-bilmasligimni so‘radilar. Ruschada faqat bir-ikki so‘z bilishimni aytdim. Bir ozdan keyin tarjimon topib keldilar. Ammol u mojar bo‘lib, turkcha bilmas edi. So‘ngra turkistonlik bir odamni olib keldilar. Taqdir taqozosini ko‘ringki, bu yigit mening o‘quvchilarimdan biri edi. Men o‘zimni tanimaganga oldim. U ham meni qo‘lladi. Hujjatlarimga qarab, “Bu o‘qituvchi, shekilli”, - dedi. Oqibatda bizni ozod etdilar. Bu safar men omon qoldim. Hatto uzr ham so‘rashdi. Ammo orqamizdan ikki josus qo‘yishni unutmadilar. Qizilravot, Krasnovodsk va Bokuda ular bizni kuzatib yurdilar. Bokuda bir kun qoldik, so‘ngra Tiflisga yo‘l oldik. Tiflis vokzalida bir faetonchi bilan eng yaqin otelga borish uchun kelishayotganimizda, kuzatuvchilardan biri yonimizga kelib, faeton-dan birga foydalanishga ruxsat so‘radi. Biz ikki kishi ekanligimizni, narsamiz ham ko‘pligini aytdim. U suhbatimizdan “Noya” oteliga ketayotganimizni eshitgach, bizdan uzoqlashdi va boshqa bir faeton olib, yurib ketdi. Shu zahoti faetonchiga “Shaytonbozordagi “Ona-do‘li” oteliga hayda”, - deb manzilni o‘zgartirdim. Xotinimni otelda qoldirdim. O‘zim esa uning egasi erzurumlik Mehmet afandidan Turkiya elchixonasi manzilini olib, u yerga ravona bo‘ldim.

*** * ***

Qo‘ng‘iroq tugmasini bosganimda eshikni barvasta bir yigit ochdi. O‘zimni tanishtirganimdan keyin u meni ichkariga olib o‘tdi. Bir ozdan keyin xonaga elchixonaning mas’ul xodimlaridan biri kirib keldi. Keyinchalik bilsam, u Fahri Belen Poshshoning ukasi Najmi Belen bo‘lib, u o‘sha vaqtda Tiflisda Harbiy attashe vazifasida ishlar edi. U menga birin-ketin savollar bera boshladi. Men barcha savoliga batafsil javob berdim. Sibirdan Turksitonga asir turk subaylari bilan birga kelganimni eshitgach, yozishdan to‘xtadi va “Bir daqiqa, orqam-dan yuring-chi”, - deb, meni yuqori qavatda joylashgan keng xonaga boshlab bordi.. Avval o‘zi ichkariga kirdi. Keyin meni taklif qildi.

Xonaga kirishim bilan divanda uzanib yotgan Mehmet (Agustosli) shoshgancha o‘rnidan turib, megnga quchog‘ini ochdi. Quchoqlashib ko‘rishdik. Buni kuzatib turgan Najmi Belen: “Masala hal, savollarga o‘rin qolmadi”, - dedi.

YANA SO‘ROQ

Menga pasport rasmiylashtirishda sezilarli yordam ko‘rsatildi. Faqat viza olish uchun ruslar bir oy ovora qilishdi. Meni ZakChK (Kavkazorti Chekasi)da har kun ertalab soat sakkizdan ikkiga qadar so‘roq qilishdi. Ularga ruscha bilmasligimni aytdim. Xotinim u vaqtda sakkiz oylik xomilali edi. Elchixona xodimlari uni Tiflis bo‘ylab kezdirishar, kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilishardi. Men esa har kun ChKdan chiqib elchixonaga kelar, bo‘lib o‘tgan so‘roq haqida so‘zlab berardim.

So‘roq vaqtida o‘zimning Turkistondan kelganimni aytmadim. Chunki u yerdan kelganlarni faqat Moskva orqali chiqarib yuborishar edi. Buncha vaqt qaerda bo‘lganimni so‘raganlarida, “Boku atrofidagi bir yerda yashadim”, - deb aytdim. So‘roq vaqtida shunday savol-javoblar bo‘lib o‘tdi:

- Bokuning o‘zida bo‘ldingmi?
- Yo‘q, Kubada.
- Kubaning markazidami?
- Yo‘q, Imonqulida edim.
- U yerda nima qilding?
- Odamlardan to‘plagan eski narsalarni qishloqlarga olib bordim. U yerda tuxum, sut va boshqa mahsulotlarga almashtirib, kun ko‘rdim.

Oxiri vizamni berishdi. Ammo pasportim yo‘qoldi deb bahona qilishdi. Bu, albatta, yolg‘on edi. Bu haqda elchixona orqali Turkiya hukumati xabardor qilinganidan keyingina Tiflisdagi elchi Muxtor-beyning yordamchisi Nasimbeydan pasportimning ikkinchi nusxasini va vizani olishga muvaffaq bo‘ldim.

Endi Batumiga yo‘lga chiqishim kerak edi. Ammo do‘stim Maxmet (Agustosli) menga shunday dedi: “Roji, Sibirdagi asirlar

lageridan qochar ekanmiz, Saksovul degan yerda men qattiq betob bo‘lib qolgan edim. Esingdami? O‘shanda “Meni tashlab o‘zing keta-ver” deyishimga qaramay, “Yo‘q, birga chiqdik, birga ketamiz”, deb meni yelkangda olib ketgan eding. Endi vijdon qarzini qaytarish fursati yetdi. Men ham sizlar bilan birga ketaman”, - dedi. Shunday bo‘ldi ham. U mendan bir oz avval Tiflisga ketdi. U yerda mening iltimosimga binoan yo‘lda qiynalib qolgan subay do‘stimiz Abdul-qodirga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatdi. Keyinchalik Abdulqodir Istambuldagi bojxonada uzoq yillar ishladi.

Batumiga yetib keldik. Orqamizdan Mexmetbey ham yetib keldi. Kemaga chiqar ekanmiz, ruslar yana muammo chiqarishdi. Bu safar kemada biz uchun joy qolmaganini bahona qilishdi. Ahvolni kerakli rasmiy idoralarga bildirdik. U vaqtda Batumida ishlayotgan Ibrohim Tolibey va Xulusibeylar yordami bilan o‘z pulimizga alohida kayuta sotib olishga muvaffaq bo‘ldik. Shundan keyingina bizni kemaga chiqardilar. Ammo bojxona xizmatidan o‘tayotganimizda, narsalarim ichida bo‘lgan rus pullari kollektsiyasini “Sen bularni nima qilasan?!”, - deb dengizga uloqtirishdi. Nima bo‘lganda ham, oxiri kemaga chiqdik va joylarimizni egalladik. Orqamizdan Menxmetbey va Abdulqodir ham kemaga chiqishdi. Kemaga chiqaan bo‘lsak-da, hamon hayajonda edik. Yana qandaydir voqea yuzberishi va bizni ushlab qolishlari mumkindek tuyulardi. Ammo favqulodda hodisa yuz bermadi va kemani qirg‘oq bilan bog‘lab turgan zanjirlar yechildi. Ollohga duo qilib, kemaning yuqori qismiga chiqdik va qalbimizda shirin va achchiq xotiralar qoldirgan bu ajoyib tuproqqa uzoq tikilib qoldik.

VUSLAT – VISOL DEGANI

Vatanga kelib ilk qadam bosgan yerimiz Trabzon tuproqlari bo‘ldi. Endi jondan aziz zaminda ozod va baxtiyor bo‘lib, barcha xavf-xatar ortda qolganini his qildik. Xolis Afandining “Erzurum” mehmonxonasi tomon yo‘l oldik. U vaqtda Trabzon mening eski harbiy bo‘linmam – III-Firqa qarorgohi bo‘lib, Anvar Poshshoning

kuyovi, keyinchalik bosh qo‘mondon darajasiga yetishgan Kozim Orbay uning qo‘mondoni edi. U menga Trabzonda qolishni taklif etdi. Men unga “Shuncha vaqt uyimda bo‘lmadim. Onam va ukamni ko‘rib kelishga ruxsat bersangiz”, - dedim. Qo‘mondon bunga qarshilik bildirmadi va biz uchun kemadan joy ajratildi. Men, xotinim, Abdulqodir va uning rafiqasi birgalikda Istanbulga qarab yo‘l oldik. Uzoq ayriliqdan keyin onam va ukam bilan diydor ko‘rishdim. Shu sababdan o‘n besh kundan keyin dunyoga kelgan qizimizga Vuslat (Visol) deb nom qo‘ydik.



Turkiston jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov (ikkinchi qator to‘rtinchi) bir guruh turk harbiylari va turkistonlik ziyolilar davrasida (Toshkent, 1919 yil)



Turon maktabida faoliyat olib borgan turk subaylari Roji Chakiro‘z va G‘olibbey bir guruh o‘qituvchi va o‘quvchilar davrasida (Toshkent, 1920 yil)



Toshkent maktablarida faoliyat olib borgan turk subaylari. Birinchi qatorda chapdan o‘ngga: Hilmibey, Roji Chakiro‘z va Yuzboshi G‘olibbey



Chorjo‘y shahridagi o‘qituvchilar maktabining bir guruh o‘qituvchilari: o‘rta qatorda chapdan to‘rtinchi Roji Chakiro‘z



Buxoro Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan Roji Chakiro‘zga o‘qituvchilik faoliyatini tasdiqlash uchun berilgan hujjat (hujjat ikki tilda: arab yozuvida o‘zbek tilida va kiril yozuvida rus tilida rasmiylashtirilgan)



Toshkentdagi teatr namoyishidan sahna ko‘rinishi

Turkiston sahifasi (turk subayining Turkiston xotiralari). - T., 2021. – 32 b.

Ushbu kitobdan Birinchi Jahon urushi ishtirokchisi, Kavkazorti janglarida yaralanib asirga tushgan, so‘ngra Krasnoyarskdagi tutqunlar lageridan qochib Turkistonga kelgan va bu yerda uzoq vaqt mobaynida o‘qituvchilik qilgan turk subayi Roji Chakiro‘z xotiralari hamda taniqli turkiyalik tarixchi olim Temur Xo‘jao‘g‘li Turkiyaning Egey universiteti Turk dunyosi tadqiqotlari instituti tomonidan “Usmoniy davlati va turk dunyosi” mavzusida o‘tkazilgan konferensiyaga taqdim etgan “Turkistonda Usmoniylar imperiyasi zobitlarining faoliyati (1914-1923)” maqolasi o‘rin olgan.

Mazkur tarjima kitobi Turkiston tarixi masalalari bilan qiziqqan o‘quvchilar bilan bir qatorda, sharq tillarini o‘qitishga ixtisoslashgan oliygohlarda turk tilini o‘rganuvchi talaba va magistrantlarga “Badiiy tarjima”, “Matn stilistikasi va tahriri”, “Yozma tarjimaning lingvistik tahlili”, “Matn tarjimasi va tahriri” fanlarini o‘qitishda foydalanish uchun mo‘ljallangan

Tarjimon va nashrga tayyorlovchi:
TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Rustam Sharipov

Mas‘ul muharrir:
TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xayrulla Hamidov

Taqrizchilar:
Амир Темур Халқаро жамғармаси раиси, профессор
Муҳаммадали Аҳмедов

TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasi
mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nilufar Xodjaeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Kengashining 2021 yil 30 sentabrdagi 2 - sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© R.Sharipov, 2021
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.